

## IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA DAVLAT BYUDJETINING AHAMIYATI

*Norqulova Shahzoda*

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini tashkil etadigan davlat byudjetining iqtisodiyot takomillashib borishida tutgan o`rni va davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida asosiy xususiyatlari haqida batafsil ma`lumot berilgan.

**Kalit so`zlar:** Davlat byudjeti, iqtisodiyot, siyosat, davlat moliyasi, YaIM, milliy daromad, daromadlar va xarajatlar, soliqlar, yalpi byudjet, brutt-byudjeti, bozor iqtisodiyoti, byudjet xususiyatlari, davlat boshqaruvi, moliyalashtirish.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о роли государственного бюджета, формирующего финансовую основу экономических возможностей государства, как главного финансового плана государства, в развитии экономики, а также об основных особенностях государственного бюджета как экономическая категория.

**Ключевые слова:** Государственный бюджет, экономика, политика, государственные финансы, ВВП, национальный доход, доходы и расходы, налоги, валовой бюджет, валовой бюджет, рыночная экономика, особенности бюджета, государственное управление, финансирование.

**Abstract:** This article provides detailed information about the role of the state budget, which forms the financial basis of the state's economic capabilities as the main financial plan of the state, in the development of the economy, and the main features of the state budget as an economic category.

**Key words:** State budget, economy, policy, state finance, GDP, national income, income and expenses, taxes, gross budget, market economy, budget features, state administration, financing.

Har bir davlatning erkin rivojlanishida jamiyat manfaatlariga to`g`ri keladigan mustaqil iqtisodiy siyosat majburiy shartlardan biri hisoblanadi. Ana shunday siyosatni izchillik bilan amalga oshirish mamlakatimiz mustaqilligi, uning qaror topishi va yanada taraqqiy etishida hal qiluvchi omildir. Bu siyosatning asosini jamiyat a`zolarining manfaatlarini qondirishga mo`ljallangan bozor iqtisodiyotini

yuritish tashkil etadi. Davlat byudjeti davlatning ana shunday siyosatini amalga oshirishga sharoit yaratadigan kategoriadir.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish va liberallashtirish sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo`lgan davlat byudjeti alohida o`rin egallaydi.

Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishida davlat tomonidan tartiblash muhim rol o`ynaydi. Davlatning o`z vazifa va funksiyalarini bajarishga, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o`z siyosatini amalga oshirishga imkoniyat beradigan qurollardan biri ham davlat byudjetidir.

Davlat moliyasini shakllantirilishi va rivojlanishida byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Byudjetning yuzaga kelishining dastlabki davrlarida uni tuzishda xarajatlar va daromadlarning bo`rttirib ko`rsatish hollari ko`p uchrashi, byudjetga undirilgan soliqlar va boshqa daromadlar haqida ma`lumotlar va ularni undirish bilan bog`liq xarajatlar byudjetda aks ettirilmas edi, bunday holatlarning oldini olish maqsadida yalpi byudjet yoki brutt-byudjetni shakllantirila boshlandi.

Davlat byudjeti milliy daromadning bir qismini o`zida jamlab, uni yana milliy iqtisodiyotga turlicha qilib taqsimlab beradi. Bunda ko`proq noishlab chiqarish sohasiga mablag`larni yo`naltiradi. Noishlab chiqarish sohasiga yo`naltirilgan mablag`lar esa o`z navbatida ishlab chiqarish sohasida to`g`ridan-to`g`ri yoki bilvosita o`tadi. Bu esa davlat byudjetining sohalar o`rtasidagi nisbatni ta`minlash funksiyasiga kiradi.

Byudjet munosabatlari jamiyat iqtisodiy tizimining ajralmas qismidir. Uning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarini bajarish uchun zarur bo`lgan moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan obe`ktiv ravishda aniqlanadi. Davlat byudjeti davlat iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini tashkil etar ekan, bir tomondan byudjetning paydo bo`lishi davlatlarning paydo bo`lishi bilan bevosita bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi byudjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- *Tarixiylik xususiyati;*
- *Rejalilik xususiyati;*
- *Huquqiy xarakterga egaligi xususiyati;*
- *Muddatlilik xususiyati*

**Tarixiylik xususiyati** – byudjet kategoriya sifatida tarixan shakllangan, turli davlatlarda o`ziga xos yaratilish xusiyatiga ega va bu holat zamonaviy sharoitlarda ham namoyon bo`lmoqda.

**Rejalilik xususiyati** – byudjet amal qilishining asosiy xususiyati uning rejali xarakterga ega ekanligidadir.

**Huquqiy xarakterga egaligi xususiyati** – byudjet me`yoriy hujjat sifatida qonuniy kuchga ega ekanligini anglatadi.

**Muddatlilik xususiyati** – byudjet belgilangan muddat uchun tuziladi va ijro etiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o`rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo`lgan milliy daromadni qayta taqsimlash bo`yicha kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimini anglatib, uning natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo`ljallangan pul fondi – davlat byudjeti tashkil topadi va maqsadli tarzda ishlatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich. Moliya va soliqlar. O`quv qo`llanma. Toshkent – 2020.
2. J.R. Zaynalov. B.Sh. Xusanov. S.S. Aliyeva. Sh.M. Latipova. Iqtisod – moliya. O`quv qo`llanma. Toshkent – 2021.
3. O`zbekiston respublikasi oliv va o`rta maxsus ta`lim vazirligi mirzo ulug`bek nomidagi O`zbekiston milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti. «Moliya va soliqlar» ma`ruzalar kursi. Toshkent – 2012 yil.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat\\_byudjeti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_byudjeti).